





Nogironligi bor insonlar uchun mol-mulk va yer solig‘i imtiyozlari


Illyustratsiya	Oson matn
	Bu maqolada sen mol-mulk va yer solig‘i imtiyozlari haqida bilib olasan.
	Soliq – bu sen davlatga biror mulking uchun pul to‘lashing.
	Soliq kodeksining 419-moddasiga ko‘ra sen soliq to‘laydigan joylar: ● Uy-joylar, kvartiralar, dala hovli binolari ● Ishxona va tadbirkorlik binolari ● Qurilishi tugamagan binolar ● Ko‘p qavatli uylarning mashina qo‘yish joylari ● Boshqa binolar
	Soliq kodeksining 421-moddasiga ko‘ra soliq to‘lashda imtiyozi bor insonlar:

	• Urushda qatnashib, O‘zbekiston Qahramoni, Sovet Ittifoqi Qahramoni, Mehnat Qahramoni ordenlarini olganlar • urushda nogiron bo‘lganlar • yoki qatnashgan deb hujjat berilgan insonlar.
	**Urushda nogiron bo‘lgan insonlar ro‘yxatiga:** • SSSR va O‘zbekistonni qo‘riqlashda • xalqni himoya qilishda • harbiy binolar qurilishida • urushga yaqin temiryo‘llarda ishlaganda • yashirin topshiriqlarni bajarishda • urushga qatnashishda • dushman tomonidan qamoqda saqlab turishda • Ozodlik uchun urushga qatnashgan xizmatchi, militsiya xodimi va Davlat xavfsizlik xizmati rahbari va oddiy ishchi bo‘lib qatnashishda • harbiy xizmatda xizmatchi, militsiya xodimi va Davlat xavfsizlik xizmati rahbari va oddiy ishchi bo‘lib qatnashishda • Harbiy tayyorgarlikda nogiron bo‘lgan insonlar kiradi.
	**Sen birinchi yoki ikkinchi guruh nogironi bo‘lsang:** • mol-mulkingning 60 kvadrat metrigacha soliq to‘lamaysan • 60 kvadratdan ko‘p qismiga soliq to‘laysan.

	Masalan: sening 70 kvadrat mulking bor bo‘lsa, 60 kvadratiga soliq to‘lamaysan. Qolgan 10 kvadratiga soliq to‘laysan.
	**Sen birinchi va ikkinchi guruh nogironi bo‘lsang mol mulk solig‘i imtiyozidan foydalanishing uchun:** • pensiya guvohnomang • yoki nogironlik hujjatingni soliq bo‘limiga ko‘rsatasan.
	Senga mol-mulk solig‘i imtiyozi berilsa, imtiyoz sening hujjatlaring tasdiqlangan kundan boshlab hisoblanadi.
	Soliq bo‘limi senga mol-mulk solig‘i imtiyozi bermasa sen sudga murojaat qilishing mumkin.
	**Sen birinchi yoki ikkinchi guruh nogironi bo‘lsang:** • faqat bitta yashash joying uchun soliq imtiyozidan foydalanishing mumkin.

	**Sen yer solig‘i to‘laydigan joylar:** ● dehqonchilik qilishing ya’ni ekin ekishing uchun berilgan yerlar ● uy qurishing uchun berilgan yerlar ● bog‘dorchilik, uzumchilik va polizchilik qilishing uchun berilgan yerlar ● sen mashina qo‘yadigan joylar ● ishing bo‘yicha berilgan yerlar ● meros bo‘lgan, sovg‘a qilingan yoki sotib olgan yerlaring ● qonuniy tartibda sotib olgan joylaring ● tadbirkorlik qilishing uchun ijaraga berilgan yerlar.
	**Yer solig‘i** imtiyozini olishing uchun senda: ● pensiya guvohnomang ● yoki nogironlik hujjating bo‘lishi kerak.
	Sen hujjatlaringni soliq tashkilotiga bergan kundan boshlab senga soliq imtiyozi beriladi.

	Sen soliq.uz internet sahifasi orqali: • daromad solig‘i • mol-mulk solig‘i • yer solig‘i • suv soliqlaridan birini tanlab, soliqdan qancha qarzing borligini masofaviy hisoblashing mumkin.
	**Sen soliq.uz internet sahifasida:** • Xohlagan hisoblash turini tanlaysan • INN (soliq to‘lov raqami) • pasportingning 14 talik raqami • yashash joyingni kiritasan • keyin qancha soliq to‘lashing kerakligi • senda bor imtiyozlar ekranda ko‘rinadi.



ЭЛЕКТРОН СОЛИҚ ХИЗМАТЛАРИ
Солиқ органларининг электрон давлат хизматлари портали
MY.SOLIQ.UZ – Солиқ мажбуриятларини бажаришнинг ишончли ва қулай усули
Русский
Автоинформатор: (0 371) 202-32-82
Рўйхатдан ўтиш
ЭРИ қандай олинади?
Портал хақида
Мақолалар
ДСҚ сайти
ЭРИ хақида
Статистика
Сўровлар
Алоқа
Хизматларни излаш
Излаш
Шахсий кабинетлар
Жисмоний шахслар учун
Хизматлар
Кабинетга кириш
Почта
Юридик шахслар учун
Хизматлар
Кабинетга кириш
Почта
Якка тартибдаги тадбиркорлар учун
Хизматлар
Кабинетга кириш
Почта
Шахсий кабинет орқали юбориладиган электрон ҳужжатлар
ФИКРИНГИЗНИ ҚОЛДИРИНГ
Ўзини ўзи банд қилганларни рўйхатдан ўтказиш
Электрон давлат хизматлари 44
Янги имкониятлар 41
Фойдаланувчи кутубхонаси
Хизматлар йўналиши 10
Интерактив хизматлар 19
Ахборот хизматлар 25
Тест синовдаги хизматлар 32
Даромад солиғи калькулятори
Мол-мулк солиғи калькулятори
Ер солиғи калькулятори
Сув солиғи калькулятори